

VATAN TUYG'USI

«Vatan tuyg'usi» fanidan bosqichli nazorat og'zaki tarzda o'tkaziladi. Nazorat savollari Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, har bir bilet tarkibiga uchtdan 5- va 6-sinf mavzulariga oid savollar kiritilgan. Birinchi va ikkinchi savollar o'qib-o'rganilgan nazariy ma'lumotlar, uchinchi dars va amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'rganilgan she'rlar, rivoyatlar, maqollar, hikmatli so'zlarni sharhlashdan hamda Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidan olingan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, mazkur fandan tayyorlangan imtihon savollari «Vatan tuyg'usi» o'quv fanining ma'no-mazmuni undagi bilim, ko'nikma va malakalarni qamrab oladi.

1. Vatan so'ziga ma'nodosh bo'lgan so'zlarni bilishi.
2. Yurtimizni qadimda qanday nomlar bilan atalganligini bilishi.
3. Xalq va millat so'zlarining bir-biridan farqini bilishi.
4. «Qadriyat», «Demokratiya», «Sivilizatsiya», «Suverenitet» so'zlarining ma'nosini bilishi.
5. «Vatan» haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishi va u haqida o'z fikrlarini bayon eta olishi.
6. Davlat, ogohlik, istiqlol so'zlarining ma'nosini bilishi.
7. Vatanparvar ajdodlarimiz Shiroq, To'maris, Najmiddin Kubro va Jaloliddin Manguberdining jasoratlari haqida bilishi.
8. «Otasining qo'lini olibdi» degan iboraning qanday ma'no anglatishini bilishi.
9. «An'ana», «Odat» so'zlarining bir-biridan farqini bilishi.
10. «Chumolining Vatani», «Samarqandning noni», «Bir qarich yer» rivoyatlarining mazmunini bilishi.
11. Milliy qadiryatlarimiz nimalardan iborat ekanligini bilishi.
12. Istiqlolga erishilgandan so'ng qo'lga kiritilgan imkoniyatlarimiz haqida bilishi.
13. O'zbek xalqining boshqa xalqlardan ajralib turadigan xususiyatlarini bilishi.
14. Oilaning jamiyatda tutgan o'rni haqida bilishi.
15. Vatanparvarlik haqida tushunchaga ega bo'lishi.
16. Barkamol avlod tarbiyasiga oid olib borilayotgan ishlar haqida tushunchaga ega bo'lishi.
17. Vatan haqida hikmatli so'zlarni yoddan bilishi va ularni sharhlay olishi.
18. Mustaqillik haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishi.
19. Prezidentimiz tomonidan yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar haqida ma'lumotga ega bo'lishi.
20. Prezidentimiz I. Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida Amir Temur, Ulug'bek hamda Alisher Navoiy to'g'risida bildirilgan fikrlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi.
21. Jismoniy va ruhiy sog'lomlik haqida tushunchaga ega bo'lishi.
22. O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi.
23. Fuqarolik hissi haqida tushunchaga ega bo'lishi.
24. O'zbekiston davlati va Prezidenti haqida ma'lumotga ega bo'lishi.
25. «Ogohlik», «Ma'naviyat», «Ongli fuqaro» haqidagi tushunchalarga ega bo'lishi.
26. Mustaqillik yo'lida kurash olib borgan ota-bobolarimiz haqida ma'lumotga ega bo'lishi.
27. Komillik haqida tushunchaga ega bo'lishi.
28. Ma'naviy boyliklarimiz haqida ma'lumotga ega bo'lishi.
29. «Vatan tuyg'usi», «Burch» haqida tushunchaga ega bo'lishi.
30. Vatanni nima uchun sevishni, mehr-muruvvat nima ekanligini anglashi.
31. Mahalla — Vatan ichidagi kichik Vatan ekanligini anglashi.

32. Mintaqa so'zining ma'nosini bilishi va ularga misol keltira olishi.
33. Muhaddis imom Buxoriy hayotiga oid ma'lumotlarga ega bo'lishi.
34. «Ramz», «Fuqaro», «Qishloq», «Shahar» so'zlarining ma'nolarini bilishi.
35. «O'zbek xalqi» va «O'zbekiston xalqi» tushunchalariga ega bo'lishi.
36. M. Yusufning «Ulug'imsan Vatanim» she'ri mazmunini sharhlay olishi.
37. «O'z uying — o'lan to'shaging» maqolini sharhlay olishi.
38. Davlat ramzlarini sharhlay olishi.

Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

Tavsiya etilgan savolni to'g'ri talqin qila olsa, turli manbalardagi materiallarni umumlashtira olsa, mazkur fan bo'yicha tushunchaga ega bo'lsa, mavzuga oid atamalarni to'g'ri sharhlasa «5» ball;

tavsiya etilayotgan savolga to'liq javob bersa, misollar keltirsa, atamalarni sharhlashda o'rnini almashtirsa «4» ball;

tavsiya etilayotgan savolga javob berishda, asosiy atamalarni yoritishda va misollar keltirishda xatolarga yo'l qo'ysa «3» ball;

tavsiya etilayotgan savollarga to'liq javob bera olmasa, misol keltirishga qiynalsa, atamalarni sharhlashda chalkashtirib yuborsa «2» ball;

tavsiya etilayotgan savolga noto'g'ri javob bersa, ayrim atamalarni qisman sharhlay olsa «1» ball qo'yiladi.

Berilgan 3 ta savol yuqorida qayd etilgan tarzda baholanib, ballar qo'shilib 3 ga bo'linadi va yakuniy baho chiqariladi.

1-bilet

1. Mustaqillik deganda nimani tushunasiz?
2. «Bir qarich yer» rivoyatini gapirib bering.

2-bilet

1. Ongli fuqaro deganda kimlarni tushunasiz?
2. Vatanimizning moddiy va ma'naviy boyliklariga nimalar kiradi?

3-bilet

1. Davlat nima?
2. Vatan timsoli deganda nimani tushunasiz?

4-bilet

1. Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun nimalar qilinmoqda?
2. Burch nima? Vatan oldidagi burch deganda nimani tushunasiz?

5-bilet

1. Tuyg'u nima? Vatan tuyg'usi deganda nimani tushunasiz?
2. Dunyodagi xalqlar va millatlar bir-biridan qanday farq qiladi?

6-bilet

1. «Vatan» deganda nimani tushunasiz? «Vatan» so'ziga ma'nodosh so'zlarni ayting.

2. M.Yusufning «Ulug'imsan Vatanim» she'ridan parcha yodlab bering.

7-bilet

1. Komil insonlar siymosida qanday xususiyatlar aks etadi?
2. O'zbek xalqining dunyo taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida gapirib bering.

8-bilet

1. Istiqlol nima?
2. A.Oripovning «O'zbekiston Vatanim manim» she'ridan parcha yodlab bering.

9-bilet

1. Mahalla, qishloq, vatan so'zlarining ma'nosini tushuntiring.
2. «Olimlik martabasi» rivoyatini gapirib bering.

10-bilet

1. Nima uchun oilani jamiyatning negizi deymiz?
2. «Mashqning foydasi» rivoyatini gapirib bering.

11-bilet

1. O'zbekiston davlati va Prezidenti haqida gapirib bering.
2. Fuqarolik hissi deganda nimani tushunasiz?

12-bilet

1. Turon va Turkiston haqida nimalarni bilasiz?
2. «Demokratiya» so'zining ma'nosini tushuntiring va unga misol keltiring.

13-bilet

1. Yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. Prezidentimiz 1996-yilda YUNESKOning bosh kotibi Federiko Mayor bilan bo'lgan suhbatida Ulug'bek haqida nima degan?

14-bilet

1. «Fuqaro» so'zining ma'nosini tushuntiring. O'tmishda fuqaro so'zi o'rnida qanday so'zlar qo'llanilgan?
2. Xalqimiz tarixining buyuk va qadimiy ekanligi nimalarda ko'rinadi?

15-bilet

1. Rasmiy va norasmiy timsollarning farqini tushuntiring.
2. Xalq va millat so'zlarining ma'nosini tushuntiring.

16-bilet

1. Vatanda erkin va bexavotir yashash deganda nimani tushunasiz?

2. «Otasining qo'lini olibdi» iborasining ma'nosini tushuntiring.

17-bilet

1. Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz? Ularga misol keltiring.
2. «Sivilizatsiya» so'zining ma'nosini tushuntiring.

18-bilet

1. Yurtimizdagi qadimiy davlatlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida Samarqand haqida nimalarni hikoya qilgan?

19-bilet

1. Jismoniy va ruhiy sog'lomlik haqida qanday bog'liqlik bor?
2. «Imom Buxoriyning onasi» rivoyatini gapirib bering.

20-bilet

1. «Ogohlik» deganda nimani tushunasiz?
2. Tibbiyot ilmiga buyuk hissa qo'shgan yurtdoshimiz Abu Ali ibn Sino haqida nimalarni bilasiz?

21-bilet

1. «O'zbek xalqi» va «O'zbekiston xalqi» o'rtasidagi farqni tushuntiring.
2. Prezidentimiz «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kush» kitobida Alisher Navoiy haqida qanday fikr bildirgan?

22-bilet

1. O'zbek xalqi qaysi xususiyatlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi?
2. «An'ana» va «odat» so'zlarining farqini tushuntiring.

23-bilet

1. Ota-bobolarimiz mustaqillikka erishish uchun qanday kurashlar olib borishgan?
2. «Bir qarich yer» rivoyatini gapirib bering.

24-bilet

1. Qadriyat nima? Milliy qadriyatlarga nimalar kiradi?
2. «Chumolining vatani» rivoyatini gapirib bering.

25-bilet

1. Istiqlol deganda nimani tushunasiz? Qanday davlatni mustaqil deyish mumkin?
2. «Samarqandning noni» rivoyatini gapirib bering.